

BANK KREDITLARI VA ULARNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI**Xurramova Fotima Bahodir qizi****Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti****2-kurs "Bank ishi va audit" yo'nalishi talabasi****fotimaxurramova261@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15671942>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada bank kreditlarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri o'rganiladi. Bank kreditlari iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini moliyalashtirish, investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish va iste'molni rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Biroq, kreditlashning ortiqcha ko'payishi iqtisodiy barqarorlikni buzishi, inflyatsiyani oshirishi va qarz yuki ko'payishiga olib kelishi mumkin. Maqolada O'zbekiston va boshqa mamlakatlarning kreditlash tizimlariga oid statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, kreditlashning salbiy va ijobiy ta'sirlari ko'rsatilgan. Kreditlash siyosatining to'g'ri boshqarilishi iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Bank kreditlarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri va ularni boshqarishning ahamiyati keltirilgan.

Kalit so'zlar: Bank krediti, iqtisodiy rivojlanish, investitsiyalar, kreditlash tizimi, inflyatsiya, Makroiqtisodiy ta'sir, iste'mol kreditlari, kichik va o'rta biznes, foiz stavkalari, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние банковских кредитов на экономическое развитие. Банковские кредиты стимулируют экономический рост за счёт финансирования основных отраслей экономики, привлечения инвестиций, стимулирования производства и потребления. Однако чрезмерное увеличение кредитования может нарушить экономическую стабильность, повысить инфляцию и увеличить долговую нагрузку. В статье проанализированы статистические данные по системе кредитования в Узбекистане и других странах, выявлены как положительные, так и отрицательные стороны кредитования. Отмечается, что правильное управление кредитной политикой имеет важное значение для обеспечения экономического роста и стабильности. Также подчёркивается влияние банковских кредитов на макроэкономические показатели и значимость их регулирования.

Ключевые слова: банковский кредит, экономическое развитие, инвестиции, система кредитования, инфляция, макроэкономическое влияние, потребительские кредиты, малый и средний бизнес, процентные ставки, экономика Узбекистана.

Abstract: This article explores the impact of bank loans on economic development. Bank lending stimulates economic growth by financing key sectors of the economy, attracting investments, and encouraging production and consumption. However, excessive lending may undermine economic stability, increase inflation, and raise the debt burden. The article analyzes statistical data on lending systems in Uzbekistan and other countries, highlighting both the positive and negative effects of lending. It emphasizes that proper management of credit policy plays a crucial role in ensuring economic growth and stability. The influence of bank loans on macroeconomic indicators and the importance of their regulation are also discussed.

Keywords: bank credit, economic development, investment, lending system, inflation, macroeconomic impact, consumer loans, small and medium enterprises, interest rates, Uzbekistan's economy.

Kirish

Bank kreditlari iqtisodiyotning eng muhim tarmog'idir va ular iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi, ishlab chiqarishni kengaytiradi va iste'mol talabi o'sishiga yordam beradi. Kreditlashning to'g'ri boshqarilishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi, lekin noto'g'ri boshqarilishi iqtisodiy inqirozga olib kelishi mumkin. Ushbu maqola bank kreditlarining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini o'rganishga bag'ishlanadi, shu jumladan kreditlashning iqtisodiy o'sish, barqarorlik va inflyatsiya bilan bog'liq ijobiy va salbiy ta'sirlari. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy resurslar harakatining samarali tashkil etilishi iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biridir. Ayniqsa, bank kreditlari mamlakat iqtisodiyotida investitsion faollikni oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va ish o'rinlarini yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kreditlash tizimi orqali moliyaviy resurslar vaqtincha bo'sh mablag'lar ko'rinishida banklarga jamlanadi va real sektor subyektlariga yo'naltiriladi. Iqtisodiy o'sish sur'atlariga kredit resurslarining ta'siri nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali, balki mikroiktisodiy darajada ham kuzatiladi. Masalan, kichik va o'rta biznes subyektlarining kredit mablag'lari evaziga faoliyatini kengaytirishi, zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishi iqtisodiy strukturaning diversifikatsiyasiga zamin yaratadi. Shuningdek, yirik sanoat korxonalari kredit mablag'laridan foydalanib, modernizatsiya va eksport salohiyatini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Jahon tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, bank kreditlarining rivojlanganligi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Levine (2005) o'z tadqiqotlarida moliyaviy vositachilik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari nisbatan yuqori bo'lishini aniqlagan. Shuningdek, Demirgüç-Kunt va Maksimovic (1998) banklar tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar firmalar o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab berganlar. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda moliyaviy sektorni, xususan bank tizimini isloh qilish, aholiga va tadbirkorlarga qulay kreditlash shart-sharoitlarini yaratish borasida bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezident qarorlari asosida milliy kredit siyosatini takomillashtirish, banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning investitsion faolligini kuchaytirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan olib qarganda, ushbu maqola doirasida bank kreditlari va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Xususan, quyidagi savollarga javob izlanadi:

Bank kreditlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri qanday?

Kreditlash siyosati real sektor faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

O'zbekiston misolida kreditlash hajmi va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik qanday?

Tadqiqot metodologiyasi, statistik ma'lumotlar va xalqaro tajriba asosida savollarga javob izlanadi. Bu esa kredit siyosatini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Kredit (lot. creditum – qarz, credo – ishonaman, maqullayman) – pul mablag'lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama (foiz) to'lab qaytarib berish sharti bilan ma'lum

muddatlarga qarzga berish. Qarzga mablag' beruvchi tomon kreditor (davlat, bank, korxona, xususiy shaxs va boshqalar), ssuda oluvchi tomon esa debitor (qarzdor) deyiladi. Kredit kelishuvi qarzdan foydalanish shartlari kayd etilgan shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Kredit muomalasi qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatdir. Lekin har qanday qarz munosabati ham kredit bo'la olmaydi. Kredit munosabatida olingan mablag' qaytarib berilishi, foydalanilgani uchun haq (kelishilgan foizda) to'lanishi, muddatli, ma'lum tovar va nomoddiy aktivlar bilan ta'minlangan bo'lishi, maqsadli ishlatilishi shart. Berilishi muddatlariga ko'ra, qisqa muddatli (1 yilga qadar), o'rta muddatli (1yildan 5 yilgacha), uzoq, muddatli (6 yildan ortiq) kreditga bo'linadi.

Kreditning tijorat, bank, davlat, iste'mol, xalqaro, ipoteka va boshqa shakllari bor. Tijorat krediti – bir xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan beriladi va, odatda, veksel bilan rasmiylashtiriladi. Bank krediti – jismoniy va yuridik shaxslarga pul shaklida banklar tomonidan beriladi. Bank kreditining forfeyting, faktoring, haridorga qarz berish kabi ko'rinishlari bor. Davlat krediti – davlatning qarz beruvchi va qarz oluvchi sifatida ishtirokini nazarda tutadi. Davlat qarz beruvchi sifatida bank tizimi orqali byudjetdan tarmoq, hudud, korxonalarni kredit ajratib moliyalashtiradi. Qarz oluvchi sifatida aholiga davlat zayomlari, obligatsiyalarini sotish bilan jismoniy yoki yuridik shaxslardan qarz oladi, natijada ichki davlat qarzi, chet davlatlardan olingan K.lar hisobidan tashqi davlat qarzi paydo bo'ladi. Iste'mol krediti – aholiga iste'mol tovarlari, xizmatlarni nasiyaga sotish, uy-joy qurilishi harajatlari uchun, lombardlardagi mulk garovi hisobiga, o'zaro yordam kassasi qarzlar va boshqa ko'rinishlarda beriladi. Xalqaro kredit – muddatli, qaytimli va foiz to'lash shartlari bilan bir mamlakatdagi kreditor tomonidan ikkinchi mamlakatdagi qarz oluvchiga pul yoki tovar shaklida beriladigan qarz, shuningdek, chet el obligatsiyalari, chet el korxonalari aksiyalari va b, qimmatli qog'ozlariga fonda olish maqsadlarida kapital qo'yish.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda bank kreditlarining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini aniqlash maqsadida kompleks tahlil usullaridan foydalanildi. Ilmiy izlanishda quyidagi yondashuvlar asos qilib olindi:

1. Empirik tahlil usuli

Bank kreditlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Jumladan, 2015–2023 yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Davlat statistika qo'mitasi va xalqaro tashkilotlarning ochiq ma'lumotlaridan foydalanildi. Bu davr mobaynida bank kreditlarining yalpi ichki mahsulot (YAIM), investitsiyalar hajmi, bandlik darajasi va sanoat o'sishiga ta'siri ko'rsatkichlar asosida baholandi.

2. Korrelyatsion va regressiyaviy tahlil

Kredit hajmi va YAIM o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda oddiy regressiya modeli qo'llanildi. Ushbu model orqali kreditlash hajmidagi o'zgarishlar iqtisodiy o'sishga qanday darajada ta'sir ko'rsatishini hisoblash imkonini berdi.

> "O'zgaruvchilar o'rtasidagi statistik bog'liqlik darajasini aniqlash — iqtisodiy modellashtirishning asosiy vositalaridan biridir" [Gujarati, 2004].

3. Taqqoslash usuli

O'zbekiston tajribasi Janubi-Sharqiy Osiyo va Sharqiy Yevropa davlatlarining kreditlash tizimi bilan taqqoslandi. Bunda xalqaro manbalar, xususan, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) va Asia Development Bank (ADB) statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

4. Tahliliy-sintetik yondashuv

Ilmiy maqolalar, iqtisodiy hisobotlar, monografiyalar va boshqa ilmiy adabiyotlar asosida nazariy asoslar o'rganildi. Bu orqali kredit tizimining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni haqidagi qarashlar umumlashtirildi.

> "Bank kreditlari iqtisodiy resurslarning eng tez va samarali harakatlanishini ta'minlovchi moliyaviy vosita sifatida namoyon bo'ladi" [Mishkin, 2019].

MUNOZARA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bank kreditlari iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kreditlash tizimi orqali ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji qondiriladi, investitsiyalar hajmi oshadi, iqtisodiy faollik kuchayadi va makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi.

1. Iqtisodiy o'sishda bank kreditlarining o'rni

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda kreditlash hajmining ortishi YAIM, sanoat ishlab chiqarishi va bandlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat xalqaro tadqiqotlar bilan ham tasdiqlanadi: "Moliyaviy tizimning rivojlanganligi iqtisodiy o'sishning asosiy shartlaridan biridir" [King & Levine, 1993].

Shuningdek, kreditlarning aniq maqsadli yo'naltirilishi – ya'ni ishlab chiqarishga, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarga ajratilishi iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Bu G'arbiy Yevropa va Osiyo mamlakatlari tajribasida ham yaqqol namoyon bo'lgan: "Yaponiya iqtisodiy mo'jizasining asosida moliyaviy sektorning ishlab chiqarishga faol kredit ajratish strategiyasi yotadi" [Stiglitz & Uy, 1996].

2. Kredit siyosatining dolzarb muammolari

O'zbekistonda kreditlash tizimi faollashgan bo'lsa-da, bir qator muammolar mavjud: Kreditlar asosan davlat kafolatlari ostidagi yirik korxonalarga beriladi, bu esa kichik biznes subyektlarini cheklaydi. Kredit stavkalari yuqoriligi sababli ba'zi investorlar uchun moliyalashtirish qiyinlashadi. Kredit olish jarayonining byurokratik to'siqlari samaradorlikni pasaytiradi. "Moliyaviy resurslar taqsimotida notekislik bo'lsa, iqtisodiy tengsizlik kuchayadi" [Beck, Demirgüç-Kunt & Levine, 2007].

3. Chet el tajribasi: Janubiy Koreya va Germaniya

Janubiy Koreya bank tizimi sanoat rivojiga xizmat qiluvchi kreditlash modeliga asoslangan. Banklar davlat strategiyasi asosida texnologik ishlab chiqarish sohalarini moliyalashtirgan. Germaniyada esa "Sparkasse" kabi mahalliy banklar kichik biznes uchun qulay kredit sharoitlarini yaratgan. "Sanoatlashtirishga yo'naltirilgan kredit siyosati – iqtisodiy rivojlanish strategiyasining yuragi hisoblanadi" [Rodrik, 2004].

4. O'zbekiston uchun tavsiyalar

Kredit stavkalarini inflyatsiyaga nisbatan real darajada ushlab turish; Kichik biznesni imtiyozli kreditlar bilan qo'llab-quvvatlash; Kredit berish tizimini raqamlashtirish orqali soddalashtirish; Kreditlar monitoringini kuchaytirish orqali samaradorlikni oshirish. > "Kredit siyosatining inkluzivligi — barqaror iqtisodiy rivojlanishning garovi hisoblanadi" [World Bank, 2020].

XULOSA VA TAVSIYALAR

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bank kreditlari O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida muhim omil sifatida xizmat qilmoqda. Kreditlash hajmining oshishi yalpi ichki mahsulot, sanoat ishlab chiqarish va bandlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes sohasiga ajratilayotgan kreditlar iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Biroq, kreditlash tizimida mavjud muammolar, jumladan yuqori foiz stavkalari va byurokratik to'siqlar, iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, kredit siyosatini takomillashtirish va barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish zarur.

Tavsiyalar:

1. Kredit stavkalarini pasaytirish va ularni inflyatsiya darajasiga moslashtirish, shunda kredit olish xarajatlari kamayadi va tadbirkorlik faoliyati yanada jadal rivojlanadi.
2. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash uchun imtiyozli kredit dasturlarini kengaytirish, bu esa yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.
3. Kredit olish jarayonini raqamlashtirish va byurokratik to'siqlarni kamaytirish orqali moliyaviy resurslarga erkin kirish imkoniyatlarini oshirish.
4. Kreditlarning maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash, jumladan innovatsion va eksportga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirishga e'tibor qaratish.
5. Moliyaviy ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish orqali kredit olish madaniyatini oshirish.

Umuman olganda, bank kreditlari iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va xalq farovonligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun kredit siyosatini strategik yo'nalishda olib borish iqtisodiy taraqqiyotning mustahkam poydevorini yaratadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Levine, R. (2007). Finance, Inequality and the Poor. *Journal of Economic Growth*, 12(1), 27-49.
2. Demirgüç-Kunt, A., & Maksimovic, V. (1998). Law, Finance, and Firm Growth. *Journal of Finance*, 53(6), 2107-2137.
3. Ganiev, S. (2021). Bank kreditlarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. Gujarati, D. (2004). *Basic Econometrics*. McGraw-Hill.
5. King, R.G., & Levine, R. (1993). Finance and Growth: Schumpeter Might be Right. *Quarterly Journal of Economics*, 108(3), 717-737.
6. Levine, R. (2005). Finance and Growth: Theory and Evidence. *Handbook of Economic Growth*, Volume 1A, 865-934.
7. Mishkin, F.S. (2019). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. Pearson.
8. Rodrik, D. (2004). *Industrial Policy for the Twenty-First Century*. Harvard University.
9. Stiglitz, J.E., & Uy, M. (1996). Financial Market Imperfections and Economic Development. *World Bank Research Observer*, 11(1), 89-106.
10. World Bank. (2020). *Financial Inclusion and Economic Growth*. Washington, DC.

11. Asian Development Bank (ADB) Report. (2021). Agricultural Finance in Asia. Manila.
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari (2015–2023).



INNOVATIVE
ACADEMY